



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (<https://tilvaadabiyot.uz>)

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 8-son



ALISHER NAVOIYNING BELARUS POYTAXTI MINSK  
SHAHRIDA BARPO ETILGAN BYUSTI



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

## Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

## Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'iqin Saydalyev  
Barno Buranova  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulkayrov  
Aljon Safarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudayqulova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva

## Axborot hamkorimiz:



## Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV  
Bibimaryam RAXMONOVA  
Oydin SHUXRATOVA

## Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

## M U N D A R I J A

### TADQIQOT

<b>Gulbahor Ashurova.</b> Alisher Navoiy – estetik ideal shaxs timsoli .....	3
<b>Sohiba Karimova.</b> Shodmon Sulaymon nasrida tibbiy obrazlar .....	5
<b>Atamuradov Sherzod.</b> O'zbek va turk tillariga oid noverbal vositalarni ifoda etishdagi pragmatik to'siq .....	7
<b>Shermamatova Shohista.</b> Jahonotin Uvaysiyning «Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi» radifli g'azalining darsliklardagi talqinlariga oid .....	9
<b>Muyassar Saparniyazova.</b> Neyming va ergonomika munosabati adabiy parallel janrining tasnifi .....	11
<b>Teshayeva Gulnoza.</b> Adabiy parallel janrining tasnifi .....	12
<b>Jamoliddin Nurmuhammadov.</b> Adabiy laboratoriyalarda "Book trailer" – kitob haqida hikoya qiluvchi qisqa videorolik tayyorlash amaliyoti .....	14
<b>Komila Komiljonova.</b> Erkin Vohidov devonida ishq-muhabbat mavzusi .....	17
<b>Новваль Рузметова.</b> Особенности применения игровых методов в образовательном процессе юридических техникумов .....	19
<b>Go'zal Ismailova.</b> Mustaqil ta'lim olishda integratsion metodlarni takomillashtirish .....	22
<b>Xolida Mirzayeva.</b> Xalq ta'limi xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida .....	24
<b>Maxfuza Abdjalimova.</b> Adabiy tafakkur yangilanishining falsafiy-estetik asoslari .....	26
<b>Latofat Mirzajonova.</b> O'zbek tilshunosligida fe'l semantikasi tadqiqi ..	27
<b>Nodir Rahmatullayev.</b> Mifopoetik lisoniy xotiraga doir ayrim mulohazalar .....	30
<b>Yodgorbek Xudayberganov.</b> Komil Avazning "Ogahiy" dramasida Feruz siymosi .....	31
Matnazar Abdulhakim ijodida Shekspirona mahorat .....	33
<b>Nigoraxon Ro'zibayeva.</b> Qarama-qarshi ma'noli til va nutq birliklari .....	35
<b>Yodgorbek Xudayberganov.</b> Sa'dulla Siyoyevning "Avaz" romanida Avaz O'tar obrazi talqini .....	37
<b>Marjona Tilovova.</b> Chet tillarni o'qitishda loyiha metodining ahamiyati va dolzarbliji .....	39
<b>Intizor Jumaniyazova.</b> Mumtoz asarlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish .....	42
<b>Bobir Sulaymonov.</b> "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli so'zlar talqini .....	45
<b>Zuhra Maxmudova.</b> Lexical-semantic study of the verbs "Yig'i" in english and uzbek languages .....	47



Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.  
<https://oak.uz/pages/4802>

<b>Nozima Gulimboyeva.</b> The concept of "Person" in the poetry of alisher Navoi .....	49
<b>Mahliyoxon Tuxtasinova.</b> L. Budagov lug'atida eski o'zbekcha so'zlarning qardosh turkiy tillar manbalari izohlanishi .....	50
<b>Sharofat Abdurahmonova.</b> Kulturologik ta'larning nazariy asoslari .....	52
<b>Abduxalil Atamatov.</b> Talabalarning kasbiy tayyorgarligini raqamlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlari .....	55
<b>Sevara Isomiddinova.</b> Til o'rganishda innovatsiyalardan foydalanishning ilmiy ahamiyati .....	57
<b>Nodira Raupova.</b> Zulfiya she'rлaridagi insонparvarlik, sadoqat va muhabbat kabi tushunchalar .....	58
<b>Shokirjon Hudaynazarov.</b> Ta'linda klaster yondashuvini tatbiq etishning turlicha yondashuvlar tahlili va metodologiya .....	59
<b>Muharram Qurbonova.</b> Sintaktik takrorning konnotativ ma'no ifodalashdagi ahamiyati .....	61
<b>Fotima Maximudova.</b> Media linguistics and its importance .....	66

#### **TAHIL**

<b>Hamidulla Boltaboyev, Dildora Inagamova.</b> Mustaqillik davrida Alisher Navoiy "Xamsa"sigiga bildirilgan munosabat .....	66
<b>Ko'palov Furqat.</b> Artur Konan Doyl va uning "Mallalar uyushmasi" hikoyasi .....	69
<b>Dilafruz Muhitdinova.</b> Linguoculturology in the anthropocentric paradigm methodological basis of the science .....	73
<b>Dilorom Yuldasheva.</b> O'zbek va ingliz tillarida antropololingvistika .....	74
<b>Oybek Nasirdinov.</b> Semantik ko'chish hodisasining lingvomadaniy tadqiqi va unga xos muammo va yechimlarning ayrim masalalari .....	76
<b>Sayyora Sodiqova.</b> Ernest Xeminguey asarlarida badiiy til vositalaridan foydalanish mahorati .....	78
<b>Sitora Ravshanjonova.</b> Abdulla Qodiriy ijodida ijtimoiy hayotning yoritilishi .....	79
<b>Dilnur Bozorova.</b> Maktab ta'limida Muhammad Yusuf biografiyasini o'rganish tamoyillari .....	81

#### **KICHIK TADQIQOT**

<b>Oydin Shuxratova, Yulduz O'sarova.</b> Ona tili darsligida o'qish, yozish, tinglash va gapirish malakalarini shakllantirishning o'rni .....	84
<b>Mamlakat Umirova.</b> Nutq o'stirishda eng samarali usul .....	85
<b>Dilfuza Shadiyeva.</b> Abdulla Oripovning undalmalarni qo'llash mahorati .....	86
<b>Maksuda Badalova, Sitora Isayeva.</b> Uzluksiz ta'lim tizimini boshqarishda klasterning roli .....	87
<b>Sitora Saidmuradova.</b> Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda zamonaviy Interfaol texnologiyalardan foydalanish modellari .....	92
<b>Sug'diyona Otamirzayeva.</b> The impact and role of social networking sites in teaching and learning a foreign language In higher education .....	95
<b>Nigora Ismatullayeva.</b> Innovative ways of teaching legal English terms in esp classes .....	96
<b>Dilso'z Zoyirova.</b> Rahbar xodimlarga ingliz tilini o'qitishda neyrolinguistik yondashuv .....	98
<b>Munisa Mirgiyazova.</b> Oliy ta'lim talabalarida kreativ kompetensiyaviylikni shakllantirish .....	100
<b>Gulmira Absalamova.</b> Xorijiy tilni o'qitish yondashuvlari .....	102

Intizor Jumaniyazova,

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining  
oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi

## MUMTOZ ASARLARNI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dars jarayonlarida xilma-xil, yangi va qiziqarli metodlardan foydalanish, dars samarasini oshirish, o'quvchilar faolligini yuksaltirishda qo'llaniladigan interfaol usullar haqida ma'lumotlar berilgan. Mumtoz namunalar bilan tanishish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, to'laqonli tushunib yetish muhimligi 6-sinf adabiyot darsligida berilgan Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asaridan keltirilgan parcha misolida ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** "Tushunchalar tahlili", mumtoz matn, tarbiyaviy-didaktik, saxovat, himmat, matn tadbili, o'qib tushunish, lisoniy birliklar

**Abstract.** This article provides information about the use of diverse, new and interesting methods in the teaching process, effective methods used to increase the effectiveness of the lesson, and increase the activity of students. The importance of familiarizing with classic examples, deep understanding of their meaning, and full understanding is shown in the example of a passage from Alisher Navoi's work "Mahbub-ul-Qulub" given in the 6th grade literature textbook.

**Keywords:** "Analysis of concepts", classic text, educational-didactic, generosity, dedication, text structure, reading comprehension, linguistic units

Bugungi kunda adabiyot darslarini tashkil etish, xususan, mumtoz adabiyot namunalarini o'rgatishda darslarda xilma-xil, yangi va qiziqarli metodlardan foydalanish zarurati mavjudki, bu holat dars samarasini oshirish va o'quvchilar faolligini yuksaltirishga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan beriladigan ma'lumotlar bir-biriga o'xhashi mumkin, ammo o'rgatish yo'llari turlichadir. Shu ma'noda mumtoz namunalar bilan tanishish, ularning mazmun mohiyatini chuqur anglash, to'laqonli tushunib yetish muhimdir.

S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev tomonidan umumta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun 2017-yilda nashr etilgan "Adabiyot" darsligida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan parchalar berilgan. "Mahbub ul-qulub" hikmatlarida adib butun umri davomida orttirgan hayotiy tajribalari asosida donishmand murabbiy sifatida insonga odamiylik ilmidan saboq beradi.

Navoiy nasriy asarlarida xalq og'zaki ijodining donishmandi sifatida xalq ta'birlari, xalq maqollaridan keng foydalanib, o'zi ham xalq maqollarini ohangida ko'pgina hikmat yaratadiki, ularning aksariyati maqolga aylanib ketgan.

Bunday buyuk daholar yaratgan tarbiyaviy-didaktik asarlar yoshlar kamoloti uchun suv va havodek zarurdir.

Alisher Navoiyning siyratlarini tanish uchun uning asarlariga nazar solsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning "Mahbub ul-qulub" asarida inson kamoloti haqida tasavvufiy tushunchalar bilan bog'lab talqin qilingan. Navoiyshunos T.Dusanova ta'kidlaganidek, "Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ni barcha asarlari saodatining kaliti sifatida yaratar ekan, unda nasr va nazm sintezidan foydalanadi. Asarning uch qismidagi fasllar, boblar, tanbehlardagi nasriy va nazmiy matnlar orqali o'zining hayot haqidagi, o'zi yashagan jamiyatdagi mavjud tabaqalarning fe'l-avtori, jamiyatda tutgan o'rni va vazifalari, o'z burchiga halol, to'g'ri munosabatda bo'lish kerakligi, komillikkha intilish, kamolot bosqichlari, qalban poklanish, tanni emas, ruhni boyitish, imyon, odamiylik to'g'risidagi mulohazalarini kelajak avlod uchun yozib qoldirgan".

Lekin o'quvchilarning bilim va tajribalari mazkur asardagi barcha so'zlarni to'liq anglash uchun hozircha yetarli emas. Darslikda asardan olingan parchaning atoqli navoiyshunos olim Porso Shamsiyev tomonidan tayyorlangan bugungi adabiy tilimizdagи tadbili berilgan. Bu esa o'quvchilarni mazkur mavzuni tez anglab yetishiga yordam beradi.

Bizga ma'lumki, o'quvchilarga mumtoz matnlarni o'rgatishda va singdirishda juda katta murakkabliklar, muammolar vujudga kelyapti.

Kitobga, adabiyotga bo'lgan muhabbat juda kamayib ketyapti. Lekin chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. O'quvchilar ingliz tilini mukammal o'rganib, yuqori cho'qqilarni egallamoqdalar. Milliy tilimiz va adabiyotimizga ham o'quvchilarimizda qiziqish uyg'otish biz ustozlar oldida turgan eng katta mas'uliyatlardan biridir. Balki, dars jarayonimizda ingliz tilidagi metod va usullardan foydalanib ko'rsak, maqsadimizga erisharmiz. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliliklari mavjuddir.

Chet tili fani to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. 6-sinf adabiyot darsligida berilgan "Mahbub ul qulub" asarini o'rganishda

ingliz tilini o'rganishdagi usullardan foydalanamiz. Sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga mumtoz matn va tadbili berilgan tarqatmalar tarqatiladi.

1. Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajardinur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiyliq kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royihasiz mushki totor. Mevasiz yig'och hamon-u o'tun hamon va yog'insiz bulut hamon-u tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o'lub qurug'on kashafg'a ne e'tibor.

1. Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mayj urib turgan dengizidir, balki u to'lqinli dengizning bebaaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o'tin ham bir; yog'insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo'lmagan sadafning farqi yo'q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q...

O'quvchilar berilgan mumtoz matnni yaxshilab ifodali o'qishadi va tabdili bilan taqposlab tushunarsiz so'zlar lug'atini o'zlari yaratishadi. Chunki darslikda lug'at berilmagan. O'quvchilarning o'zlari lug'atni shakllantirish orqali ma'lum bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar.

O'quvchilarda lug'at bilan ishslash ko'nikmasi hosil bo'ladi. Mumtoz matn bilan ishslashda lug'at yodlash katta ahamiyatga ega. Har bir guruhdan ikkita o'quvchi chiqib lug'atlarni o'qib tushuntiradilar. Tushunarsiz so'zlar lug'ati doskaga yoziladi.

O'qiganingizni tushunish uchun matndagi so'zlarning hech bo'lmaganda ko'p qismini tushunish kerak. Lug'at boyligi matnni tushunishning asosiy komponentidir. O'quvchilar dars davomida yangi so'zlarni o'rganishi mumkin, lekin ular so'zlarning ma'nosini odatda kundalik vaziyatlarda yoki o'qish paytida bilib oladi.

O'quvchilar qancha ko'p yangi so'zlarni o'rgansa, ular uchun maxsus mashg'ulotlar bolalar bilan birga amalga oshirilsa, ulardagi tafakkur, nutq rivoji, mantiqiy fikrlash doirasi, savodxonligi, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, qiziqishlari va shu kabi bir qator ijobji sifatlari keskin oshadi.

Ma'lumki, adabiyot ta'limalda kichik guruhrilar bilan ishslashda izchillik va ketma-ketlilik, uzviylik va uzlusizlik tamoyili ham muhim o'rinni tutadi. Guruhrilar tomonidan tushunarsiz so'zlar lug'ati yodlab olinadi va so'raladi. "Mahbub ul-qulub" asarining tayyor nasriy bayoni emas, balki asl ko'rinishi ifodali o'qiladi. O'quvchi avval darslikdan har bir gapni diqqat bilan o'qydi, keyin uni nasriy bayoni mazmuni bilan solishtiradi. Tanbihlarning mazmuni o'zlashtiriladi va bir yoki ikki o'quvchiga qayta so'zlattiriladi.

O'quvchilarga notanish bo'lgan holat va tasvirlar haqida tushuncha berish, qo'shimcha yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar tuzish mavzuni yanada chuqurroq o'rganishga, fiklashga turki bo'ladi. O'qituvchi har bir guruhga muammoli savollarini tarqatmalar orqali beradi.

"Mahbub ul-qulub" asaridagi matnlar haqida ma'lumot berilgach, mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun ingliz tilida qo'llaniladigan o'qib tushunish usulidan foydalilanadi. Ingliz tilidagi Reading (o'qib tushunish) usulida uchta matn beriladi. Matnlar yaxshilab o'qiladi va har bir matnga oid topshiriqlar beriladi. "Mahbub ul-qulub" asarini o'tishda ham shu usulni qo'llasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir guruhga matnlar tarqatiladi. Matnlar yaxshilab o'qiladi va shu matnlarga oid topshiriqlar beriladi.

Namuna:

**guruh**  
"Tushunchalar tahlili" metodi

Tushunchalar	Mazmuni	ball
Saxovat	..... insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir.	
Himmatsiz	..... kishi er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas.	
Shunqor kalxat	.....ning maskani shohning bilagidir; .....ning joyi o'limtikning sassiq badani va so'ngagidir.	
Arslonning	.....ning maqsadi – ov qilib, och yirtqichlarni to'yg'azmoq;	

## guruhan

Til	"Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbai ham u, yomonliklar keltiruvchi nahn yulduzining chiqar joyi ham u", -deya nima ta'riflangan.	
Safar	..... – xom odam larni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir.	
Balandparvoz lochinga	"Mahbub ul-qulub"da oliyhimmat kishilar nimaga o'xshailadi?	
Itga	Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma kishilar nimaga qiyoslanadi.	

O'quvchilar matnlar asosida tuzilgan muammoli topshiriqlarni bajarish asnosida mavzuni tushunib oladilar. O'qib tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Darsning uchinchi qismida adabiyot fanini ona tili fani bilan bog'lab fanlar integratsiyasini vujudga keltiramiz. Bizga ma'lumki, 6-sinf ona tili darsligida so'z tarkibi mavzusi o'tiladi. Morfemalar, ya'ni so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqida o'quvchilar ma'lumotga ega bo'lganlar. Asos va qo'shimchalar, qo'shimchalarning turlarini ajrata olishi kerak. Matndan bir parcha olib undagi so'zlarni so'z tarkibi jihatdan tahlil qilishlari lozim bo'ladi. Ya'ni asos, so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarga ajratish lozim. Masalan, quydagi matndagi so'zlarni o'rganamiz.

Mazlumga yaxshilik qilsang, zolimdan omonda bo'lsan. Agar kuchlilardan zarar ko'rmayin desang, kuchsizlarga foya yetkaz. Aqli bor odam janjallahishdan qochadi; do'stlashish uchun kelishuvchilik eshigini ochadi. Arining g'uvullashida nayza san chishi xavfi bor; asalarining g'ovurida bolga tuyassar bo'lish imkonini bor.

Asos	So'z yasovchi	Lug'aviy shakl	Sintaktik shakl
kuch	-li	-lar	-dan
yaxshi	-lik		
kuch	-siz	-lar	-ga
janjal	-lash	-ish	-dan
do'st	-lash	-ish	
guv	-ulla	-sh	-i,-da

Bu jarayonda o'quvchilar asar matnni yanada chuqurroq anglashadi hamda undagi lisoniy birliklarga ham befarq bo'lishmaydi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida o'quvchilar olgan bilimlarini, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish uchun fanlararo integratsiyadan foydalanish kutilgan natijani beradi.

Alisher Navoiy asarlarini o'rgatishda mana shunday muammoli topshiriqlardan foydalanish barkamol insonni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega.

**Foydalilanilgan adabiyotlar**

- Abduraxmonova S.M. Navoiy asarlaridagi she'rlarning janr tarkibi va badiiy xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Namangan, 2022
- Dusanova T.R. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida nasr va nazm sintezi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023.
- 6-sinf adabiyot [Matn] Q.2./ S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Toshkent: "Ma'naviyat", 2017. 160-b.